

Irnazarov Shuhrat Najmetdinovich

Termiz davlat universiteti yuridik fakultet o'qituvchisi

XORIJIY HUQUQIY AMALIYOTDA AXLOQ TUZATISH VA MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH JAZOLARI

Annotation: Ushbu maqola axloqiy tuzatish va muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari haqida tahliliy fikrlar va qiyosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Maqolada AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarda bu jazo turlarining qanday qo'llanilishi, jinoyatchilarni jamiyatga qayta moslashtirishda ularning samaradorligi, qamoqxonalardagi yukni kamaytirishdagi roli ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligi bilan taqqoslanib, davlatda axloq tuzatish va huquqdan mahrum qilish jazolarini takomillashtirish yo'nalishida xorijiy tajribalardan foydalanishning afzallikkleri muhokama qilinadi. Maqola, shuningdek, statistik ma'lumotlar va qonunchilikdan real misollar bilan boyitilgan. O'zbekiston jinoyat tizimida axloqiy jazolarni kengroq qo'llash orqali jinoyatchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va davlat resurslarini tejash imkoniyatlarga urg'u beriladi.

Keywords: Axloqiy tuzatish jazolari, muayyan huquqdan mahrum qilish, jinoyat jazolari, xorijiy tajriba, O'zbekiston qonunchiligi, jinoyatchilarni qayta integratsiyalash, jamoat xizmatlari, elektron kuzatuv tizimlari, davlat lavozimlaridan mahrum qilish, jinoyatchilarni qayta tarbiyalash, jazo tizimi modernizatsiyasi, davlat resurslarini tejash, qayta ijtimoiy moslashuv, qamoq jazolari alternativlari, psixologik yordam dasturlari, jinoyatchilarni ijtimoiy moslashtirish, jamiyat xavfsizligi, korrupsiyaga qarshi choralar, davlat ishonchini oshirish, reabilitatsiya dasturlari.

Jinoiy jazolar tizimi har bir davlatning huquqiy tizimining assosiya qismi bo'lib, u nafaqat jazolash, balki ijtimoiyadolatni ta'minlash va huquqbuzarni qayta tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi. So'nggi o'n yilliklarda dunyo bo'ylab jinoyatchilikka qarshi kurash usullari tubdan o'zgarmoqda. An'anaviy qamoq jazolarining cheklanganligi va har doim ham samarali emasligi sababli ko'plab davlatlar axloqiy tuzatish va muayyan huquqdan mahrum qilish kabi jazolarni kengroq qo'llash yo'llarini qidirmoqda. Ushbu maqolada, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqa davlatlarda bu jazolarning qanday ishlatalishi, ularning samaradorligi va O'zbekiston qonunchiligiga qiyosan taqdim etilgan.

Axloqiy tuzatish jazolari – bu jinoyatchiga jamoat xizmatlari orqali yoki maxsus reabilitatsiya dasturlari orqali jamiyatga qayta moslashish imkonini beradigan jazo turi. Bunday jazo turi ayniqsa, qamoqxona joylarini tejash, qayta jinoyat sodir etishni kamaytirish va jinoyatchilarni jamiyat bilan bog'lashda samarali hisoblanadi. Misol uchun, AQShda axloqiy tuzatish jazo turi asosan o'rta darajadagi jinoyatlar uchun keng qo'llanadi. Axloq tuzatish va muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari AQShda muayyan jinoyatlar uchun jazo sifatida belgilangan. Bu jazolar jinoyatchilarni tuzatish, jamiyatga qayta moslashish va jinoyatlarni oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ushbu jazolar federal va shtat qonunlari bilan tartibga solinadi. 2023-yilgi AQSh Milliy Adliya Statistikasi Byurosi ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 1,2 million kishi jamoat xizmatlari, psixologik yordam yoki giyohvandlikdan davolash dasturlariga jalb qilingan. Natijada qamoqxonalarda joy bo'shatilib, davlat mablag'lari tejalgani qayd etilgan.

Axloqni tuzatish choralar, ayniqsa kichik jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Bu turdag'i jazolar ichki tuzatish dasturlari, ijtimoiy xizmat yoki shartli ozodlikni o'z ichiga oladi. Bunda jinoyatchilar o'z xulq-atvorlarini yaxshilashga undaladi, masalan, narkotiklar yoki alkogolga qarshi davolash dasturlari orqali. Federal jinoyatlarda axloq tuzatish haqida ma'lumotlar 18 U.S. Code § 3553 (a)

bo‘yicha qayd etilgan. Bu modda jinoyatchilarni maqsadga muvofiq tuzatish dasturlariga yuborishni talab qiladi.

Shtatlar, shuningdek, jinoyatchilarni turli ijtimoiy xizmatlar yoki o‘qish-mashg‘ulot dasturlariga yuboradi. Masalan, Kaliforniya shtatida 32-1 Kodeks moddasiga ko‘ra, ayblanuvchilar axloq tuzatish dasturlarini o’tashi mumkin.

Jinoyatchilarga qo‘llaniladigan yana bir jazo turi bu muayyan huquqlardan mahrum qilishdir. Bu huquqlardan mahrum qilish saylovlarda ovoz berish, quroq saqlash huquqlaridan mahrum qilish kabi ijtimoiy cheklavlarni o‘z ichiga oladi. Federal hukumat jinoyatchilarga ba’zi huquqlardan mahrum qilishni talab qiladi. Masalan, 18 U.S. Code § 922, jinoyatchilarga quroq saqlash huquqini cheklaydi. Bundan tashqari, jinoyatchilar odatda saylovlarda ovoz berish huquqidan mahrum bo‘ladi.

Shtatlarda ham xuddi shu turdag'i jazolar qo‘llanadi. Misol uchun, Floridada jinoyatchilar saylovda ovoz berish huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

Germaniyada axloqiy tuzatish jazosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qamoq jazosini almashtiruvchi vosita sifatida qo‘llanadi. Bu davlatda sudlar kichik va o‘rta darajadagi jinoyatlar uchun qamoq o‘rniga jinoyatchini mahalliy tashkilotlarda jamoat xizmatlarida ishlashga majbur qiladi. Bunday jazo turi orqali davlat yiliga 100 million yevrogacha mablag‘ tejaydi.

Germaniyada axloq tuzatish va muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari Germaniya Jinoyat Kodeksida (StGB) ko‘rsatilgan. Bu jazolar ko‘plab jinoyatlarda jazo sifatida qo‘llaniladi, asosan jinoyatchilarni jamiyatga qaytarish va ularga huquqiy me’yorlarga rioya qilishni o‘rgatish maqsadida.

Axloq tuzatish ishlari (Führungsaufsicht): Germaniyada, agar jinoyatchi jiddiy jinoyatni sodir etgan bo‘lsa va u shaxsiy tuzatish muhitida bo‘lishi kerak bo‘lsa, unga axloq tuzatish ishlari tayinlanadi. Bu jazolar shaxsni ijtimoiy va axloqiy jihatdan qayta tarbiyalashga qaratilgan. Bu kabi jazolar ko‘pincha shaxsni sinovdan o‘tkazish uchun ishlatiladi va ular sud tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Masalan, shaxs sud tomonidan belgilangan psixologik yordam yoki ijtimoiy reabilitatsiya mashg‘ulotlariga qatnashishi kerak bo‘lishi mumkin.

Muayyan huquqdan mahrum qilish (Berufsverbot): Germaniyada, ayrim jinoyatchilar uchun muayyan huquqlardan mahrum qilish jazosini qo‘llash mumkin. Bu, odatda, jinoyatni sodir etgan shaxsni yoki uning jamiyatdagi faoliyatini cheklashni o‘z ichiga oladi. Masalan, muayyan kasbda ishlash yoki umumiy ishlarda qatnashish huquqi cheklanadi. Shu tarzda, jamiyatni himoya qilish maqsadida ayrim shaxslar maxsus sohalarda ishslashdan mahrum qilinadi. Bu jazolar ko‘pincha ular ijtimoiy xavfli bo‘lgan va jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jinoyatchilarga qo‘llaniladi.

Tugatish va Reabilitatsiya: Germaniya qonunchiligida axloq tuzatish ishlari va huquqdan mahrum qilish jazolarini bajarish muddati va shartlari sudning qaroriga qarab belgilanadi. Bu jazolar shaxsning ijtimoiy qayta integratsiya qilishini ta‘minlash uchun ishlatiladi va ko‘pincha muayyan reabilitatsiya dasturlari bilan birga amalga oshiriladi. Germaniyada bu jazolarni belgilashda jinoyatchining individual holati, jinoyatning og‘irligi va uning jamiyatga qaytish ehtimoli hisobga olinadi.

Yaponiyada axloqiy tuzatish jazolari oilaviy zo‘ravonlik yoki kichik talonchilik kabi jinoyatlar uchun qo‘llanib, jinoyatchilarni ijtimoiy xizmatlar orqali jamiyatga qaytarish maqsadini

ko‘zlaydi. Yaponiyada bu jarayonga reabilitatsiya markazlari va ixtisoslashgan tashkilotlar ham jalg qilingan. Natijada, qayta jinoyat sodir etish holatlari taxminan 30% ga kamaygani kuzatilgan.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi jinoyatchini muayyan huquq va imtiyozlardan cheklash orqali jazolashdir. Bu jazo turi asosan korruption jinoyatlar, davlat mulkini o‘zlashtirish va boshqa mansabdor shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. Germaniyada davlat xizmatchilari jinoyat sodir etsa, ular kelajakda davlat lavozimlarida ishlash huquqidan mahrum qilinadi. Bu choralar davlat sektoridagi korrupsiya holatlarini kamaytirish va davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga qaratilgan.

Fransiyada ham davlat amaldorlarining noqonuniy faoliyati aniqlanganida, ularga muayyan muddatga davlat xizmati bilan shug‘ullanish taqiqlanadi. 2022-yilda bu jazo turi Fransiyada 3 mingdan ortiq shaxsga nisbatan tatbiq qilingan. Shunday jazo orqali davlat resurslari himoyalanib, xalqning davlat idoralariga ishonchi oshirilmoxda.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 46-moddasiga asosan axloq tuzatish ishlari

shaxs ish haqining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda olti oydan uch yilgacha muddatga uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo‘lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o‘z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o‘taladi.

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi. Mahkum doimiy yashash joyiga ega bo‘lмаган taqdirda hukmning ijrosi hukm chiqarilgan joydagi ichki ishlar organi zimmasiga yuklanadi. O‘zbekiston qonunchiligida axloqiy tuzatish jazolari va muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari mavjud bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish amaliyoti nisbatan cheklangan. 2022-yilda Jinoyat Kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlar tufayli kichik va o‘rta jinoyatlar uchun qamoq jazosi o‘rniga axloqiy tuzatish jazolari ko‘rishi mumkin bo‘ldi. Biroq, bu amaliyot hali keng miqyosda qo‘llanilmayapti.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda axloqiy tuzatish jazolari asosan kichik jinoyatlar uchun qo‘llaniladi, lekin bu tizimni kengroq joriy qilish orqali davlat xarajatlarini kamaytirish va jamiyat xavfsizligini ta’minlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, O‘zbekiston qonunchiligida mansabdor shaxslarni korruption jinoyatlar uchun ma’lum vaqtga davlat xizmatidan chetlatish amaliyoti ham mavjud.

Xorijiy Davlatlar va O‘zbekiston Amaliyoti o‘rtasidagi Taqqoslash

1.Jazo Ko‘lamining Kengligi: AQSh va Buyuk Britaniyada axloq tuzatish jazolari qamoq jazosi o‘rniga keng qo‘llaniladi. Masalan, AQShda qamoqqa olish o‘rniga jamoat xizmatlarini bajarish orqali davlat har yili qamoqxonalardan taxminan 1 milliard dollar tejaydi (Federal Byuro hisobotlariga ko‘ra).

O‘zbekistonda esa bu jazo turi faqat ayrim jinoyatlar uchun qo‘llaniladi.

2. Davlat Lavozimidan Mahrum Qilish: Germaniya va Rossiya qonunchiligidagi davlat lavozimidan mahrum qilish kengroq qo'llanilib, davlat ishonchini oshirish uchun jiddiy choralar qo'llaniladi. O'zbekiston ham bu usulni korrupsiyaga qarshi kurashda qo'llamoqda, ammo xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish orqali bu tizimni yanada rivojlantirish mumkin.

3. Elektron Kuzatuv: AQSh va Buyuk Britaniyada elektron kuzatuv tizimlari qamoq jazosini alternativi sifatida samarali qo'llaniladi. Misol uchun, AQShda 2021-yilda 150 mingdan ortiq shaxs elektron kuzatuv tizimida axloqiy tuzatish jazosini o'tagan (Amerika Probatsiya Assotsiatsiyasi hisobotiga ko'ra).

Taklif va Tavsiyalar

1. Elektron Kuzatuv Tizimlarini Joriy Etish: O'zbekistonda elektron kuzatuv tizimlarini joriy etish orqali qamoq jazo yukini kamaytirish va jinoyatchilarni jamiyatga qayta integratsiya qilish jarayonini samaraliroq qilish mumkin. AQShda bu tizim har yili 500 mingdan ortiq shaxs uchun qo'llanilib, davlat har yili millionlab dollar tejamoqda (Amerika Probatsiya Assotsiatsiyasi, 2022)

2. Jamoat Xizmatlarini Kengaytirish: O'zbekistonda jamoat xizmatlari ko'lalmini kengaytirish orqali davlat xarajatlarini kamaytirish va jinoyatchilarni jamiyatga tezroq qayta moslashtirish mumkin. Buyuk Britaniyada, masalan, har yili 200 mingdan ortiq shaxs axloqiy tuzatish jazo sifatida jamoat xizmatlarini bajaradi, va bu orqali davlat har yili 800 million funt tejaydi (Britaniya Adliya Kengashi hisobotlari, 2022).

3. Jinoyatchilarni Psixologik Moslashtirish Dasturlari: Yaponiya tajribasini inobatga olib, axloq tuzatish jazolariga psixologik va pedagogik yordam dasturlarini qo'shish orqali jinoyatchilarni jamiyatga moslashtirish imkoniyatini oshirish mumkin. Yaponiya jinoyatlarni psixologik tuzatish dasturlari orqali jinoyatchilik darajasini 15% ga kamaytirgan (Yaponiya Ichki Ishlar Vazirligi, 2022)

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Jazolashning bunday shaklining ijobjiy xususiyatlari shundan iboratki, mahkum o'zining sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishining jamiyat tamoyillariga zid ekanligini anglash va o'z qilmishini tushunib yetish imkoniyatini yaratish bilan birga ularga doimiy ravishda oila a'zolari, yaqin kishilar, o'zlar o'qiydigan o'quv yurtlari, mehnat qilayotgan mehnat jamoalari bilan aloqani ushlab turish imkoniyatini beradi. Agar jinoyat sodir etgan shaxsga jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'limgan jazo turlari qo'llanilsa shaxs oilasidan, maxallasidan, mehnat jamoasidan ajratilmaydi, natijada u jamiyat uchun foydali ish bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Albatta, jazoning asosiy maqsadi – mahkumni tuzatish. Shuning uchun ham shaxsga jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'limgan choralar qo'llanilsa, shaxs sodir etgan jinoyatiga pushaymon bo'lishi va o'ziga to'g'ri xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoiy ijroiya Kodeksi
3. Germaniya Jinoyat Kodeksi (StGB)
4. Davis, K. (2017). Criminal Justice in the Modern World. Publisher: Justice Publications.
5. Smith, L. (2015). Comparative Penal Systems: A Global Perspective. Publisher: Global Law Press